O‘ZRESPUBLIKASI RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI HUZURIDAGI YURIDIK KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti direktorining birinchi o‘rinbosari



2026-yil 12-may

“Sud ekspertlarining huquqiy bilimlarini oshirish” malaka oshirish kursidan suhbat shaklida yakuniy nazorat o‘tkazishga oid

METODIK MATERIALLAR

Metodik materiallar “Sud ekspertlarining huquqiy bilimlarini oshirish” bo‘yicha o‘quv dasturiga (2026-yil 1-aprelda tasdiqlangan) asoslanib tayyorlangan

“Sud ekspertlarining huquqiy bilimlarini oshirish” malaka oshirish kursidan suhbat shaklida yakuniy nazorat o‘tkazishga oid
METODIK KO‘RSATMALAR

Mazkur metodik ko‘rsatmalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 19-martdagi 171-son va 2026-yil 20-fevraldagi 73-son qarorlari asosida ishlab chiqilgan. Sud ekspertizasining muayyan turi bo‘yicha uzluksiz ravishda o‘n yil davomida sud-ekspertlik faoliyatini amalga oshirgan sud eksperti hamda uzluksiz ravishda kamida so‘nggi uch yil davomida sud-ekspertlik faoliyatini amalga oshirib kelayotgan davlat sud ekspertlari ushbu ixtisoslik bo‘yicha qayta tayyorlash kurslarini o‘tmasdan yakuniy imtihon topshirishga haqli.

Sud ekspertlarini yakuniy nazoratdan o‘tkazish bo‘yicha quyidagi talablar qo‘yiladi:

Umumiy malaka talablari:

Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan inson hamda fuqarolarning huquq va erkinliklari ustuvorligiga rioya qilish mahorati;

huquq normalarini to‘g‘ri tushunish, uni adolat prinsiplari asosida qo‘llay bilish mahorati;

huquqiy madaniyat saviyasi va huquqiy tarbiya mahorati ko‘nikmasi;

sud ekspertlik faoliyatida ishni adolat va xolis hal qilish, insoniylik va qonuniylik omillarini ta’minlaydigan boshqa fazilat hamda shaxsiy sifatlari;

kompyuter dasturlari, ma’lumot bazalari va elektron hujjat aylanishi bilan ishlash ko‘nikmasi;

vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli bajarishi;

murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri qaror chiqarishi.

Kasbiy malaka talablari:

qabul qilinayotgan sohaviy yangi qonunlar va amaldagi qonun hujjatlariga kiritilgan oxirgi o‘zgartish va qo‘shimchalarning mazmun-mohiyati, xorijiy mamlakatlardagi sud-ekspertlik faoliyati haqida ma’lumotlarga ega bo‘lishi;

ashyoviy dalillarni qabul qilish, saqlash, qayta ishlash va ekspertiza uchun tayyorlash tartibini bilishi;

ilmiy asoslangan metodlar asosida tahlil, o‘lchash, diagnostika va baholashni amalga oshirishi;

aniq, asosli, tushunarli va normativ talablariga mos xulosa rasmiylashtirishi;

laboratoriya asbob-uskunalari, o‘lchov qurilmalari va maxsus texnikalar bilan ishlay olishi;

sud jarayonida o‘z ekspert xulosasini asoslab berish va savollarga aniq javob bera olishi;

texnika xavfsizligi, biologik va kimyoviy xavfsizlik qoidalariga rioya qilishi;

o‘z yo‘nalishidagi yangi metodlar, texnologiyalar va ilmiy adabiyotlarni muntazam o‘rgangan bo‘lishi.

YAKUNIY NAZORAT O‘TKAZISH TARTIBI

Yakuniy sinov imtihoni suhbat shaklida amalga oshiriladi.

Yakuniy sinov imtihoni Pedagoglar markazi tomonidan tegishli kursning mavzulari bo‘yicha ishlab chiqilgan savollar asosida o‘tkaziladi.

Suhbat paytida komissiya a’zolari tomonidan o‘tilgan mavzular bo‘yicha qo‘shimcha savollar berilishi mumkin.

O‘quv kursi bo‘yicha yakuniy sinov, tinglovchilarga bilimni baholash mezonlarini e’lon qilishdan boshlanadi.

Yakuniy sinov baholash mezonlari quyidagicha belgilanadi:

Baholash turi	Baholash ko‘rsatgichi	
Yakuniy baholash	O‘tdi	O‘tmadi

YAKUNIY NAZORATDA TINGLOVCHILARNING BILIMINI BAHOLASH MEZONLARI

Tinglovchining bilimi quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

tinglovchi “sinovdan o‘tdi” deb baholanadi, agar:

o‘quv kursi dasturining barcha mavzulari bo‘yicha tizimli, to‘la va chuqur bilimga ega bo‘lsa, zarur dalillar bilan asoslay olsa;

savollarga javobni mantiqan to‘g‘ri, stilistika qoidalari asosida ifodalasa; muammoli savollarni aniqlash, o‘z qarashlarini ilmiy-amaliy tilda asoslab bersa;

standart vaziyatlarda muammolarni o‘quv dasturi doirasida mustaqil hal qila olsa;

o‘quv kursi bo‘yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo‘nalishlar mohiyatini anglasa va ularga tanqidiy baho bersa;

mashg‘ulotlarda o‘qish davri mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashsa, guruhli muhokamalarda faol bo‘lib, vazifalarni bajarishda yuqori madaniyat darajasiga ega bo‘lsa.

tinglovchi “sinovdan o‘tmadi” deb baholanadi, agar:

savollarga javob berishda jiddiy va qo‘pol mantiqiy xatolarga yo‘l qo‘ysa yoki umuman javob bermasa;

mashg‘ulotlarda passiv qatnashib, vazifalarni bajarish madaniyatining past darajasiga ega bo‘lsa yoki umuman bajarmasa;

amaliy ko‘nikmalarga va kompetensiyalarga ega bo‘lmasa, o‘z xatolarini hatto pedagog xodim tavsiyalari yordamida ham to‘g‘rilay olmasa.

“Sud ekspertlarining huquqiy bilimlarini oshirish” malaka oshirish kursidan suhbat shaklida yakuniy nazorat o‘tkazish bo‘yicha

SAVOLLAR

1. Sud ekspertizasi tushunchasi va uning huquqni muhofaza qilish tizimidagi ahamiyatini tushuntiring.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining sud-ekspertiza faoliyatidagi o‘rni nimadan iborat?
3. “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi Qonunning asosiy maqsad va vazifalarini izohlang.
4. Sud eksperti faoliyatining asosiy prinsiplarini tushuntiring.
5. Sud ekspertining huquq va majburiyatlarini sanab bering.
6. Sud ekspertining mustaqilligi qaysi huquqiy mexanizmlar orqali ta’minlanadi?
7. Sud ekspertizasini tayinlashning huquqiy asoslari va tartibini tushuntiring.
8. Sud-ekspertiza muassasalarining huquqiy maqomi nimalardan iborat?
9. Sud ekspertiza faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmlarini izohlang.
10. Sud eksperti faoliyatida inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlashning ahamiyati nimada?
11. Jinoyat protsessida sud ekspertizasining tutgan o‘rnini tushuntiring.
12. Fuqarolik ishlarida sud ekspertizasi tayinlashning o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
13. Ma’muriy ishlar bo‘yicha sud ekspertizasini tayinlash tartibini izohlang.
14. Sud ekspertizasi tayinlash haqidagi qaror yoki ajrimda qanday ma’lumotlar bo‘lishi shart?
15. Ekspert oldiga qo‘yiladigan savollarga nisbatan qanday huquqiy talablar mavjud?
16. Sud eksperti tomonidan xulosa berish jarayoni qanday bosqichlarda amalga oshiriladi?
17. Ekspert xulosasining dalil sifatidagi huquqiy ahamiyatini tushuntiring.
18. Qo‘shimcha va qayta ekspertiza o‘rtasidagi farqlarni tushuntiring.
19. Ekspert xulosasiga nisbatan e’tiroz bildirish tartibini izohlang.
20. Sud ekspertizasi jarayonida protsess ishtirokchilarining huquqlari qanday ta’minlanadi?
21. Dalil tushunchasi va uning sud ekspertizasidagi ahamiyatini tushuntiring.
22. Namuna olishning protsessual tartibi qanday amalga oshiriladi?
23. Biologik, qo‘lyozma va raqamli namunalar bilan ishlashning o‘ziga xos xususiyatlarini izohlang.

24. Ekspertiza obyektlarining saqlanishi va butligini ta’minlash qanday amalga oshiriladi?

25. Sud ekspertizasini o‘tkazishda dalillarning haqiqiyligi qanday tekshiriladi?

26. Ekspert tadqiqotida texnik vositalardan foydalanishning huquqiy asoslarini tushuntiring.

27. Sud ekspertizasi natijalarini rasmiylashtirishga qo‘yiladigan talablarni izohlang.

28. Kompleks va komissiyaviy ekspertizalarning farqli jihatlarini tushuntiring.

29. Kompleks ekspertizani o‘tkazishda turli soha mutaxassislari hamkorligi qanday ahamiyatga ega?

30. Tergov harakatlarida mutaxassis ishtirokining huquqiy asoslarini tushuntiring.

31. Shaxsga doir ma’lumotlar tushunchasi va ularni himoya qilishning huquqiy asoslarini tushuntiring.

32. Sud eksperti tomonidan shaxsiy ma’lumotlardan foydalanishda qanday cheklovlar mavjud?

33. Raqamli dalil tushunchasi va uning protsessual ahamiyati nimadan iborat?

34. Elektron qurilmalardan olingan ma’lumotlarni ekspertiza qilish jarayonini tushuntiring.

35. Kiberjinoyatlarni tergov qilishda sud ekspertizasining roli nimadan iborat?

36. Raqamli dalillarni yig‘ish va saqlashda qanday protsessual qoidalarga rioya qilinishi lozim?

37. Sud eksperti faoliyatida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari va xavflarini izohlang.

38. Sud ekspertining kasbiy etikasi va odob-axloq qoidalarini tushuntiring.

39. Sud eksperti faoliyatida yuzaga keladigan konfliktli vaziyatlarni hal etish usullarini izohlang.

40. Sud ekspertining ichki ishonchi, xolisligi va psixologik barqarorligini ta’minlash omillarini tahlil qiling.

Markaz mudiri v.b. **Z. Raxmonov**

Kelishildi